



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

**BOBURIYLAR TARIXINING BADIY REKONSTRUKSIYASI: ALEKS  
RUTSERFORD ROMANLARI MISOLIDA  
ARTISTIC RECONSTRUCTION OF THE HISTORY OF THE  
BABURIDS: ON THE EXAMPLE OF THE NOVELS OF ALEX  
RUTHERFORD**

**Mullaxo'jayeva Karomat Toshxo'jayevna**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

E-mail: [kmullahodjayeva@gmail.com](mailto:kmullahodjayeva@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-9556-3230

Qodirova Mohida Rustamjon qizi

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [nazarovamohida@gmail.com](mailto:nazarovamohida@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-8172-9777

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./OKFQ7174](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./OKFQ7174)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Aleks Rutserford qalamiga mansub “Mo'g'ullar imperiyasi” (“Empire of the Moghul”) romanlar turkumiga kiruvchi asarlar asosida boburiylar tarixining badiiy talqini tahlil qilingan. Tadqiqotda boburiylar shaxsi va ularning atrofida sodir bo'lgan tarixiy voqea-hodisalarning badiiy asarda qayta yaratilishi o'rganilgan. Romanlarda boburiylarning olti buyuk hukmdorlarining, dastavval, “buyuk davlat qurish”, keyin esa ana shu davlatni asrab qolish yo'lidagi qiyinchiliklari, hamda ularning o'quvchi ongida badiiy obraz sifatida gavdalanishi jarayonlari jonli tasvirlangan. Shu bilan birga, g'arbona uslubdagi tarixiy roman janri an'analari doirasida boburiylar tarixining ommalashtirilishidagi muallif hissasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar tarixining badiiy ifodalanishi va tarixiy roman janrining ilmiy o'rganilishi uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

**Kalit so'zlar:** Bobur, tarixiy roman, Aleks Rutserford, boburiylar, “Mo'g'ullar imperiyasi”, “Boburnoma”.

**Annotation.** In this article, the artistic interpretation of baburid history is analyzed based on the novels belonging to the “Empire of the Moghul” series written by the English author Alex Rutherford. The study examines the literary reconstruction of the baburid rulers and the historical events that took place around them within the fictional narrative. The novels vividly depict the challenges faced by the six great baburid emperors, first in the process of “building a great empire” and later in preserving it, as well as the formation of their images as literary characters in the reader's perception. At the same time,



*the author's contribution to the popularization of baburid history within the traditions of the Western historical novel is revealed. The results of the study serve as an important resource for the scholarly investigation of the literary representation of Zahiriddin Muhammad Babur and baburid history, as well as for the study of the historical novel as a genre.*

**Keywords:** *Babur, historical novel, Alex Rutherford, baburids, “Empire of the Moghul”, “Baburnama”.*

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi Yevropa olimlari, ayniqsa, ingliz olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan hamda uning “Boburnoma” asarini ingliz tarjimonlari uch marta (Leyden&Erskin, Beverij, Tekston) ingliz tiliga muvaffaqiyatli tarzda o'girishgan. Shu bilan birga, bir qator ingliz yozuvchilari Z.B.Bobur hayoti va ijodiga qiziqishlari, ushbu sohada olib borgan o'rganishlari natijasi o'laroq ko'plab badiiy asarlar yaratganlar. Ingliz yozuvchilari Flora Anni Stil, Harold Lamb va Aleks Rutserfordlar o'z asarlari orqali G'arb kitobxonlarini buyuk boburiylar tarixi bilan yaqindan tanishtirganlar. Har bir yozuvchi ushbu sulola tarixiga o'ziga xos yondoshuvga egaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Ushbu tadqiqot o'z oldiga Aleks Rutserfordning boburiylar tarixiga bag'ishlangan “Mo'g'ullar imperiyasi” romanlar turkumini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan.

Aleks Rutserford angliyalik yozuvchilar – Diana Preston va Maykl Prestonlarning umumiy taxallusi bo'lib, bu taxallus, asosan, ularning “Mo'g'ullar imperiyasi” romanlar turkumiga nisbatan ishlatilgan. Yozuvchilar Oksford universitetida tarix va ingliz tilidan (ona tili sifatida) tahsil oladilar. Ularning Toj Mahal inshootining tarixini o'rganishlari ularni ana shu inshootni qurgan sulola tarixi haqida ko'proq izlanishlariga olib keladi. Shuningdek, yozuvchilar sulola asoschisi Z.M.Bobur izidan Farg'ona vodiysidan to Shimoliy Hindistonning bepoyon kengliklarigacha sayohat qiladilar. Diana va Maykl Prestonlar Hindiston tarixini yorituvchi o'ndan ortiq asarlarning mualliflari bo'lib, “Mo'g'ullar imperiyasi” turkumi ularning tarix sohasidagi ilk badiiy ijodlari hisoblanadi. Shu sababli ular ushbu turkum asarlari oldingi kitoblardan farqlanib turishini xohlaydilar va “Rutserford” taxallusi ushbu turkumga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu taxallus Nobel laureati Ernest Rutserford nomidan olingan bo'lib, “Aleks” ham ayol, ham erkak ismini bildirgani uchun tanlangan. Yaxshi bilamizki, ko'p yillardan buyon g'arbda Boburiylarga yanglish tarzda “Mo'g'ullar” nomining berilishi xususida sharqshunos olimlar tomonidan ko'p fikrlar bildirilgan. Mazkur mualliflar ushbu romanlar seriyasini nomlashda ana shu tendensiyadan borishgan.

“Mo'g'ullar imperiyasi” romanlar turkumi olti kitobdan iborat bo'lib, unda Z.M.Boburdan boshlab Avrangzeb Olamgirgacha bo'lgan davrdagi voqealar qamrab olingan. Ushbu asar faqatgina biografik romanlar jamlanmasi emas, balki buyuk Temuriylar (Boburiylar) merosining adabiy qayta tiriltirilishi bo'lib, unda hokimiyatning insoniy fojiasi, madaniyatlarning to'qnashuvi va shaxsiy

tuyg'ularning imperiya manfaatlariga qurbon qilinishi badiiy va tarixiy qiyoslash uslubida yuksak darajada yoritilgan. Shuningdek, boburiylardek turkiy xalq vakillarining Hindiston shart-sharoitiga moslashishlari, hind xalqining urf-odatlarini o'rganib (hatto ayrimlarini o'zlashtirib), ushbu xalq bilan birlashib ketishlari bosqichma-bosqich o'quvchi ongiga singdirilgan. Yozuvchilar ushbu romanlar turkumini yaratishda ko'plab tarixiy manbalarga, jumladan, “Boburnoma”, “Humoyunnoma”, “Akbarнома”, “Tuzuki Jahongiriy”, “Shoh Jahonnoma” va “Olamgirnoma” kabi yilnomalar, saroy a'yonlarining kundaliklari hamda chet davlatlardan kelgan elchilarning qaydnomalariga asoslanganlarini romanlar so'ngida qayd etganlar. Romanlar yilma-yil 2009-yildan boshlab 2015-yilgacha (beshinchi va oltinchi kitoblar orasi ikki yil) deyarli har yili chop etilgan. “Mo'g'ullar imperiyasi” romanlar turkumini quyidagi asarlar tashkil etadi:

1. “Shimoldan kelgan fohihlar” (“Raiders from North”) – Z.M.Bobur
2. “Aka-ukalar urushi” (“Brothers at war”) – Humoyun mirzo
3. “Jahon hukmdori” (“Ruler of the world”) – Akbarshoh
4. “Tahqirlangan taxt” (“The tainted throne”) – Jahongirshoh
5. “Ilon tishi” (“The serpent's tooth”) – Shoh Jahon
6. “Soyadagi sotqinlar” (“Traitors in the shadows”) – Avrangzeb Olamgir

“Mo'g'ullar imperiyasi” romanlar turkumining birinchi qismi “Shimoldan kelgan fohihlar” (“Raiders from North”) deb nomlangan va asar Z.M.Boburning ilk taxtga chiqishidan boshlab, Samarqandning egallanishi, darbadarlik yillari, Kobuldagi turg'unlik va nihoyat Hindistonning zabt etilishi kabi voqealarni o'z ichiga olgan. Asar 4 bo'lim, 2 bobdan iborat. Muallif o'zi ta'kidlaganidek, asarni yozishda, asosan, “Boburnoma”dagi ma'lumotlarga tayanadi, unda nomi keltirilgan joylarni sayohatlari davomida o'z ko'zi bilan ko'radi, Bobur ta'riflagan o'simliklar-u hayvonot olami, xalqning turmush tarzi bilan tanishadi, ular bilan biroz muddat yashab, birga ovqatlanadi. Shuning uchun asarda keltirilgan joylar, o'simliklar va taomlarning tasviri ham juda jonli, xuddi o'quvchi ularni ko'rib turgandek taassurot uyg'otadi. Romanda Bobur mirzo, asosan, sarkarda va hukmdor sifatida badiiy maydonga chiqadi. Asarning ilk qismidanoq Bobur mirzoni kelajakda buyuk zafarlar va mashaqqatlar kutib turgani anglashiladi. Ya'ni muallif asar boshidanoq Boburga otasi tilidan bobokaloni Amir Temurdek ulkan saltanat qurish, otasi kabi Farg'ona vodiysidek kichkina saltanat bilan qoniqmaslik g'oyalarini singdiradi. Asarda Bobur kuchli xarakter va iroda egasi ekanligi uning o'z saltanatini qo'lida qilich bilan himoya qilishga tayyorligi, yosh bo'lishiga qaramasdan unda katta matonat borligi Qambar Ali xiyonati voqealari tasvirida anglashiladi. Quyidagi nuqtalar asarning o'ziga xosligi va badiiyligini ta'minlovchi jihatlar hisoblanadi:

1. Umarshayx mirzo o'limidan so'ng taxtga chiqishi. “Boburnoma”da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, otasi vafotidan so'ng Bobur qiyinchiliksiz taxtga chiqadi, otasining beklari ham mamlakatga xavf solib turgan dushmanlarga qarshi birgalikda kurashadilar. Lekin Rutserford Bobur hayotining bu qismini yangicha



sarguzashtlar bilan to'ldiradi, ya'ni endi Bobur taxtga osonlik bilan erishmaydi, beklar ham sodiq emas, mamlakatning turli tomonlaridan amakisining qo'shinlari bostirib keladi. Hokimiyat birligini saqlab qolish uchun Bobur qo'lga qilich olib mamlakatning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi jangga kirishadi. Avvalo, xiyonatkor vazir Qambar Alini Shayboniyxonni Boburga qarshi jangga otlantirgani uchun qatl etadi, shundan so'ng ichki yordamdan ayrilgan Shayboniyxon ortiga qaytib ketadi. Shayboniyxonning kutilmagan hujumiga uchragan amakisi ham hayotdan ko'z yumadi va tashqi xavflar bartaraf etiladi.

2. Samarqand taxtiga da'vogarlik. Tarixan har bir temuriy shahzoda bobosi Temurning poytaxti Samarqand shahrida taxtga o'tirishni xohlaydi va buning uchun yakuni yo'q janglarga kirishadi. Boburda ham xuddi shunday motiv bor edi. Biroq Rutserford Boburning Samarqand taxtiga intilishini amakisi meros qilib qoldirgan Amir Temur uzugi bilan asoslaydi. Ya'ni Ahmad mirzo o'limi oldidan uzugini jiyaniga yetkazishlarini so'raydi va g'oyiban uni taxtining vorisi deb tan oladi, chunki uning o'z vorisi yo'q edi. Shuningdek, Samarqand taxtining egallanish syujeti ham Bobur haqida yaratilgan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Samarqandni bir necha oy qamal qilib egallay olmagan Bobur yakka o'zi dehqon bolasi kabi kiyinib maxfiy yer osti yo'li orqali shaharga kiradi. Shaharda amakisi Ahmad mirzoning uzugini olib kelgan chopar bilan uchrashib qolib, uni yordam berishga ko'ndiradi va Samarqand ichki yordam vositasida egallanadi. O'n uch yoshli shohning (boy-king) Samarqandga yurish qilishi bir jasorat bo'lsa, yakka o'zi himoyachilarsiz dushman shaharga kirishi ushbu jasoratning yuksak ko'rinishidir. Bu orqali Rutserford “Bobur” ismidagi “yo'lbars” ma'nosini amalda isbotlaydi va uning maqsadi yo'lida hech qanday xatarlardan qo'rqmasligini ko'rsatadi.

3. Jahongir mirzo bilan kelishmovchilik. “Boburnoma”da keltirilishicha, Jahongir mirzo Umarshayx mirzoning birinchi xotinidan tug'ilgan o'g'li, biroq yosh jihatidan Boburdan kichik, shu sababli taxtga Bobur mirzo o'tiradi. “Shimoldan kelgan fothlar” romanida esa Jahongir mirzo “mavjudligi yashirin bo'lgan, Umarshayx mirzoning vafotidan so'nggina bobosi tomonidan saroyga keltirilgan bola” [Rutherford, 2009: 49] sifatida ta'riflanadi. Bobosi uni saroyga olib kelganida Bobur Samarqandni egallash uchun ikkinchi hujumini boshlayotgan edi. Otasining hammadan yashirin yana boshqa o'g'li borligini hazm qila olmagan Bobur o'gay ukasi bilan ko'rishishni xohlamaydi va urushga ketadi. Muallif aka-ukalarni asar davomida umuman uchrashtirmaydi. Shuningdek, romanda muallifning sharq oilaviy jamiyatiga g'arbona yondashuvini ko'rishimiz mumkin. “Boburnoma”dagi qaydlarga ko'ra, Umarshayx mirzoning Qutlug'nigor xonimdan tashqari yana uch xotini, ulardan ikki o'g'li, to'rt qizi ham bor edi. Aleks Rutserford esa Umarshayx mirzoni xuddi Yevropa qirollaridek faqatgina bitta xotini bor edi, deb ta'riflaydi. Shuningdek, transformatsiya jarayoni natijasida mo'g'ul tuman begining qizi bo'lgan Fotima Sulton begim ismi “Roksana”ga almashadi va asarda “nasl-nasabi noma'lum,

kichik bir qabila boshlig'ining qizi” [Rutherford, 2009: 49] sifatida maydonga chiqadi.

4. Andijonning qaytarib olinishi. Romanda Andijon taxti Ali Do'st tag'oyining Marg'ilon qo'rg'onini jangsiz qaytarib berishi bilan emas, balki Boburning tinimsiz janglari, kutilmagan hujumlari vositasida qaytarib olinadi. Jahongirning bobosi Boburning uzoqdaligidan foydalanib, Ahmad Tanbal bilan ittifoq tuzadi va Boburga qarshi isyon ko'taradilar. Boburning oilasini garovda saqlagan holda, uning shaharga hujum qilish xavfining oldini oladilar. Bobur kichik-kichik hujumlar uyushtirib, birin-ketin o'z hududlarini, oilasini dushmanlari qo'lidan qaytarib oladi. Muvaffaqiyatga boshqalarning yordami bilan emas, o'z mehnati orqali erishadi.

5. Xonzoda beginning Shayboniyxon qo'liga tushishi. Shayboniyxon bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan Bobur uzoq qamaldan so'ng, Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Shayboniyxon tuzilgan tinchlik sulhini buzgan holda Samarqanddan chiqishda Boburdan opasini unga xotinlikka tashlab chiqishni talab qiladi. Oilasi, askarlari va Samarqand aholisi hayoti bilan tahdid qilishgani sababli opasidan bunday qurbonlikni iltimos qilishga majbur bo'ladi. Bu qarori sababli bir umr opasi va onasi oldida o'zini aybdor deb hisoblaydi va asosiy e'tiborini qanday bo'lsa ham, opasini qutqarishga qaratadi.

6. Samarqandning uchinchi marta egallanishi. Shayboniyxon vafotidan so'ng, Bobur Samarqandni qayta egallaydi, biroq shia-sunniy mojarosi sababli uni saqlab qololmaydi. “Boburnoma”ning bu davr voqealari tasvirlangan qismi bizgacha yetib kelmagan, tarixiy hujjatlar asosida bu mag'lubiyatning asosiy sababi shia va sunniy mazhablaridagi kelishmovchiliklar bo'lganini bilishimiz mumkin. Aleks Rutserford tarixiy faktlarga tayangan holda ushbu voqeaning to'liq ta'rifini keltiradi, bunda voqealar aynan qanday sodir bo'lgani noma'lumligi unga o'z yozuvchilik fantaziyasiga asoslanish imkonini beradi. Romanda keltirilishicha, Eron hukmdori shoh Tahmasp Shayboniyxonni jangda mag'lub etib, Boburning opasini uning qo'lidan qutqaradi. Shu bilan birga, unga Samarqandni egallashda yordam berishini, buning evaziga Tahmaspni oliy hukmdor deb e'lon qilishini so'raydi. Samarqand taxtiga bo'lgan ishtiyoq hamda opasi uchun minnatdor bo'lgan Bobur shohning barcha talablariga rozilik beradi. Ikki mazhab o'rtasidagi keskin qarshilikning natijasini yaxshi anglagan Boburiy (Boburning do'sti) uni bu ishdan qaytarishga urinadi. Boburiy obrazi qisman to'qima obraz bo'lib, u “Boburnoma”da o'rda bozori boshlig'ining o'g'li sifatida keltirilgan. Biroq Rutserford unga yangicha ruh beradi va uni Boburning quroldosh do'sti maqomiga ko'taradi. Samarqandga yurish masalasida Boburdan musht yegan Boburiy do'stidan xafa bo'lib, ketib qoladi. Samarqand shoh yordami bilan egallanganidan so'ng, Boburiy taxmin qilgan barcha ko'rguliklar sodir bo'ladi. Samarqand aholisi Boburning siyosiy taktikasini tushunmaydi va uni sotqin deb hisoblab, qo'zg'olon ko'taradi. Shoh Ismoil bilan orasi butunlay



buzilmasligi uchun u jo'natgan bosh ulamoni omma orasidan o'zi qutqarib chiqishga majbur bo'ladi. Ushbu tushunmovchilik sabab Bobur uchinchi marta ham Samarqandni o'z qo'lida saqlab qololmaydi.

7. Hindistonning egallanishi. “Boburnoma”da Bobur Hindistonga qilgan yurishlarida to'fang (miltiq) va zarbzhan (zambaraksimon qurol)dan foydalangani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Rutserford esa bu qurollarni Boburiy vositasida Boburga yetkazadi va Boburda Hindistonni egallashga bo'lgan ishonch paydo bo'ladi. Bu yerda Boburiy Turkiyadan olib kelgan qurollari Hindistonga qilingan yurishning asosiy motivi vazifasini bajargan. Ungacha Boburda Hindistonga yurish xohishi bo'lsa-da, bunday katta hududni egallash, uning hukmdori bo'lgan Ibrohim Lo'diyning sanoqsiz qo'shinlarini yengish imkoni bo'lmagani ta'kidlanadi.

8. Obrazlar tizimi. Muallif o'zi qayd etganidek, ko'plab obrazlar tarixiy asoslariga ega bo'lsa-da, ayrim qahramonlar qisman o'zgarishga uchragan, ayrimlari esa butunlay yozuvchining ijod mahsulidir. Jumladan, asardagi Boburiy, Qosim, Roksana kabi qahramonlar tasvirida tarixiy haqiqatga yangicha yondashuvni ko'rsak, Vazirxon, Qambar Ali, Qunduz shahzodasi, Boysung'ur (harbiy a'yon) obrazlari muallif tomonidan asar syujetiga kiritilgan to'qima obrazlar hisoblanadi.

Asar oxirida Bobur o'limi oldidan farzandlari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan taxt talashishlar muqarrar ekanini, Humoyunning ukalari uni hukmdor sifatida tan olmasliklari mumkinligini tan oladi. Ushbu qismda muallif romanning keyingi qismlarida aka-ukalar o'rtasida bo'ladigan mojarolarga ishora qiladi va Bobur tilidan opasiga xuddi o'ziga bo'lganidek, undan keyin o'g'illariga ham ko'z-quloq bo'lib yurish vazifasini topshiradi. Humoyunga esa ukalari qanchalik jazoga loyiq bo'lsalar ham, ularga mehribon bo'lishini vasiyat qiladi.

“Aka-ukalar urushi” “Mo'g'ullar imperiyasi” romanlar turkumining ikkinchi qismini tashkil etadi va Bobur vafotidan keyingi voqealarni davom ettiradi. Ushbu asar 4 bo'lim, 28 bobdan iborat bo'lib, Gulbadan begimning “Humoyunnoma” asari, shuningdek, Humoyunning xizmatchisi Javhar tomonidan yozilgan “Tazkirat ul-voqiot” xotiranomasi va Abul Fazl tomonidan yozilgan “Akbnoma” asarining dastlabki qismlariga asoslangan holda yozilgan. Shunday bo'lsa-da, muallif asarga yangicha uslubda yondashgan va to'qima obrazlar hamda voqealar vositasida o'sha davr tarixini jonli tarzda tasvirlagan. Muallif asar so'ngida qayd etganidek, Humoyun mirzo davri tarixini tasvirlashda ayrim o'rinlarga mufassal to'xtalgan bo'lsa, ayrim jihatlarni qisqartirgan. Yoki sababi ochiq qoldirilgan voqea-hodisalarga o'zining taxminiy motivlarini asos qilib keltirgan. Jumladan, tarixiy asarlarda keltirilishicha, Gulbadan begim saroy amaldorlaridan bo'lgan Xo'ja Xizrxonga turmushga chiqadi va bir o'g'il farzandli bo'ladi [Sotimov, 2003: 52]. Biroq Rutserford asarda uning oila qurishi haqida to'xtalmaydi, Gulbadan begim obrazidan faqatgina kerakli o'rinlarda foydalanadi va uning taqdiri ochiq qoladi. Shuningdek, Gulbadan begim “Humoyunnoma”



asarini jiyani Akbarshohning iltimosiga binoan Humoyun podshoh vafotidan keyin yozadi. Rutserford esa uning Humoyun mirzo bilan birgalikda sargardonlikda yurgan davridan boshlab kundalik yoza boshlaganini tasvirlaydi [Rutserford, 2010: 202]. Xonzoda begimning o‘limi tasviri ham muallif ijodining mahsuli bo‘lib, Xonzoda begim aslida cho‘ldagi qum to‘fonida emas, balki Kobul yaqinidagi Kobulhaq degan joyda vafot etadi [Sotimov, 2003: 51].

Turkumning ushbu qismidan boshlab yozuvchi boburiylar imperiyasi asoschilarini ko‘chmanchi mo‘g‘ul qabilalari vakillari sifatida tasvirlay boshlaydi. Asta-sekinlik bilan turkumning keyingi qismlarida boburiylarni ko‘chmanchi qabiladan Hindiston tuprog‘ida o‘rtoqlashib qolgan sulolaga aylanganligi haqidagi fikrni o‘quvchi ongiga singdirib boradi. Asar voqealari “buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasi”ning ikkinchi imperatori Humoyun hukmronligining ilk davridagi ma‘naviy qiyinchiliklar, ukalarining isyonlari tasviri bilan boshlanadi. Boburning kutilmagan vafotidan so‘ng, taraddudda qolgan Humoyun otasidan qolgan ulkan imperiyani qanday qilib saqlab qolish, ukalari bilan murosasozlik qilish va mamlakat hududlariga ko‘z olaytirayotgan dushmanlarga qarshi kurashish masalalarida chuqur qayg‘uga tushadi. Shuningdek, otasining o‘limidagi aybdorlik hissi unga davlat ishlariga e‘tibor qaratishga imkon bermasdi. Albatta, bunday vaziyatlarda temuriylar saroyida bo‘lgani kabi boburiylar sulolasida ham saroy xonimlari o‘zlarining oqilona maslahatlari bilan yordamga keladilar. Humoyun ammasi Xonzoda begimning daldasi bilan o‘zida butun imperiyani boshqarish uchun kuch topadi va otasidek mamlakatning turli tomonlariga harbiy safarlar uyushtiradi. Biroq hokimiyatni uzoq saqlab qololmaydi. Asarda buning sabablari sifatida quyidagi motivlar keltirilgan:

1. Humoyunning ukalariga bo‘lgan cheksiz rahmdilligi oxir-oqibat o‘z taxtidan ayrilishiga sababchi bo‘ladi. Otasining o‘lim oldi aytgan vasiyatiga amal qilib, ukalarini bir necha marotaba gunohlarini kechiradi, lekin Kamron mirzo to ko‘z nuridan ayrilgunicha unga qarshilik qilishda davom etadi. Shu bilan birga, muallif aka-ukalar o‘rtasidagi sovuq munosabatlarning asosi sifatida Humoyunning ukalarini saroydan uzoqda tutishi, ularning qalbida nimalar kechayotganini bilmasligi va bilishga qiziqmasligi, ulardan hech qanday ta‘malarsiz sadoqatni kutishi kabi jihatlar keltirilgan. Voqealar rivojida shunday xulosaga kelish mumkinki, aslida, Humoyun emas, balki Hindol mirzo Boburning haqiqiy vorisi, faqatgina unda Boburga xos qat‘iyat, insonlar qalbini anglay olish qobiliyati, shu bilan birga jangovarlik tuyg‘usi mujassam edi.

2. Humoyundagi osmon ilmiga bo‘lgan qiziqish uni saroy amaldorlaridan, davlatning muhim ishlaridan uzoqlashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, beklar va amaldorlarda o‘z hukmdorlarining qudratiga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishiga olib keladi. Bunga qo‘shimcha tarzda Kamronning onasi Gulruh begim bergan afyun ta‘sirida xayolotga beriladi. Afyunning kuchi bilan ruhi osmonlarda uchib yurgani, osmonning sir-sinoatlarini aniqlaganini da‘vo qiladi. Uning bu qarashlarini davlat siyosati bilan bog‘lashi, hafta kunlarini yulduzlarga bog‘lab,



ana shu yulduz homiylik qiladigan kunda yulduzning xususiyatiga muvofiq ishlarni amalga oshirish tartibi yoki har bir ishda yulduzlardan yo‘l-yo‘riq kutishi hokimiyatining tanazzulining asosiy motivi sifatida ko‘rsatiladi. Humoyun butun saroy amaldorlari va qo‘shin nazdida xayolparast behushdek taassurot uyg‘otadi. Afyun ta’sirida mamlakatning eng muhim ishlariga ham beparvo munosabatda bo‘ladi. Bundan foydalangan tashqi dushmanlar Sher Shoh Sur boshchiligida uni Hindiston hududidan siqib chiqaradilar. Ushbu jihat otasi Boburning osmon ilmi haqidagi qarashlariga qarama-qarshi bo‘lib, Bobur muammolariga osmondan yechim kelishini kutish emas, balki “ish kelganida vaqtni qo‘ldan boy bermaslik kerakligini” [“Boburnoma”, 2023] o‘z kundaligida ta’kidlagan edi. Ushbu asar Bobur avlodlariga o‘rnak sifatida yozilgan bo‘lsa ham, Humoyun mirzo otasining achchiq tajribalaridan xulosa olmaydi va saltanatidan mahrum bo‘ladi. Sargardonlik yillarida o‘z xatosini tushunib yetadi, biroq endi kech bo‘lgan, saltanat qo‘ldan ketgan edi.

3. Humoyun mirzoning psixologik holati. Bobur mirzo davrida hamda o‘zining ilk hukmronlik yillarida erishgan muvaffaqiyatlari Humoyun mirzoni kelajakda faqatgina buyuk kelajak va g‘alabalar kutib turgani haqida fikrni shakllantiradi. Buning natijasida Humoyun sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan mag‘lubiyatlarga ruhan tayyor bo‘lmaydi.

Siyosiy sargardonlik motivi ham Humoyun mirzo tarixida muhim rol o‘ynaydi. Sher Shoh Sur bilan bo‘lgan Chausadagi jangdan so‘ng, Humoyun mirzo asta-sekinlik bilan Hindiston hududidan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Ushbu qism(?)da muallif tarixiy haqiqatga tayangan va o‘sha tarixning tasviriy detallarini jonli tasvirlagan. Jumladan, Humoyun mirzoning Eron shohi Tahmaspdan ko‘mak olib, ukalariga qarshi jang qilishi yoki Akbarning amakisi tomonidan qal’a devoriga jonli to’siq sifatida chiqarilishi va chorasiz qolgan Humoyun qal’aga hujumni to‘xtatishi fikrimiz dalilidir. Humoyun va Hamida begimning sargardonlik yillarida ko‘rgan azob-uqubatlari tasviri esa asarning eng ta’sirli qismlaridir.

G‘arbona yondashuv uyg‘unligi asarning bir necha o‘rinlarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, Humoyun mirzoning dafn marosimida uni tobut bilan birga qabrga ko‘milgani aytiladi, bu Xristian dini aqidalarining uyg‘unlashuvi hisoblanadi. Chunki Islom dinida mayit tobut bilan emas, yolg‘iz kafan bilan ko‘miladi. Umuman olganda, asarda “Mo‘g‘ullar imperiyasi” romanlar to‘plamining birinchi qismidagi voqealar mazmunan va mantiqan davom ettirilgan, ayrim qahramonlar, jumladan, Mohim begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Humoyun, Gulruh begim, Kamron, Askariy, Hindol kabi tarixiy, Boysung‘ur (Mohimning otasi), Ahmadxon, Qosimbek va Bobo Yasovul kabi to‘qima obrazlar ikkinchi kitobdan ham o‘rin olgan. Roman Humoyun mirzoning Gujarotga hujumi voqealari bilan boshlanib, uning vafoti bilan yakunlanadi.

“Jahon hukmdori” (“Ruler of the world”) deb nomlangan uchinchi kitob Akbarshoh hukmronligi davrini tasvirlaydi, voqealarni mantiqan va xronologik



ravishda davom ettiradi. Asar tarkibi 4 bo'lim, 19 bobdan tashkil topgan va unga bir necha tarixiy asarlar manba vazifasini bajargan. Jumladan, Abulfazlning “Akbarнома” hamda “Oyini Akbariy” asarlari, uning davomi sifatida Abulfazlning yordamchisi tomonidan yozilgan “Vaqoyi” asari, Abdulqodir Badauniyning “Muntaxab ut-tavorix“ asari, shuningdek, Iezuitlar rahnamosi Antonio Monserrate va ilk ingliz savdogari Ralf Fitchning xotiranomalari ushbu romanning tarixiy asosini tashkil qiladi [Rutherford, 2011: 361].

Ushbu roman “eng buyuk mo'g'ul (boburiy) hukmdori” nomini olgan Akbarshohning ilk hukmronligidan boshlab to shahzoda Salimning otasi vafotidan so'ng, taxtga chiqishigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Asarni o'qish davomida kitobxon hukmdorlar va ularning ziddiyatli shaxsiyati ortidagi motivlarni tushuna boshlaydi. Misol uchun, Akbarshohning Bayramxon vasiyligidan qutulishga intilishi va uni hokimiyatdan chetlatishi Bayramxonning hokimiyatni Akbarshohga topshirishga shoshilmasligi bilan asoslangan. Asarning shu qismidan boshlab Akbarshoh shaxsiyatida atrofida qilarga bo'lgan ishonchsizlik tuyg'usi tomir otadi va uning natijasida hatto o'g'illari bilan ziddiyatlar kelib chiqadi. Bunga ko'kaldoshi Adhamxon va uning onasi Mohim yanganing xiyonati sabab bo'lgan edi. Bundan tashqari, shayx Salim Chishtiyning atrofida qilardan, hattoki o'z o'g'illaridan ehtiyot bo'lishi kerakligi haqidagi maslahati undagi shubha va gumonlarni kuchaytirgan edi.

Akbarshoh shaxsiyatining yana bir qirrasini – bu uning diniy va ijtimoiy bag'rikengligidir. U Hindistonda tug'ilgan ilk boburiy hukmdor sifatida mamlakatning barcha fuqarolarini teng mavqeda ko'radi va shunga muvofiq munosabatda bo'ladi. Birinchi bo'lib, g'ayridinlik uchun olinadigan soliqni bekor qiladi, keyin davlatning muhim mansablariga mahalliy aholi vakillarini tayinlaydi. Uning inshootlarida ishlayotgan har bir ishchiga ikki barobar haq to'laydi. Yilning ma'lum bir qismlarida Hindiston an'alariga muvofiq tarzda o'z vazniga teng miqdorda turli xil boyliklarni askarlar va aholiga yilma-yil ulashib turadi. Bunday islohotlar natijasida Akbarshoh fuqarolari qalbida xalqparvar, saxiy, g'amxo'r imperator va yengilmas sarkarda sifatida muhrlanib qoladi. Biroq Akbarshoh hayotining murakkab jihati ham shunda edi. Uni barcha fuqarolari yaxshi ko'rsa-da, o'zining eng yaqin insonlari, jumladan, ayoli Man Bai va o'g'li Salim bilan munosabatlari yaxshi emas edi. Man Bai Amber viloyati rojasining singlisi bo'lib, rajput qabilasidan edi. Uning Akbarshohga bo'lgan nafratiga Chittorgarh qal'asida halok bo'lgan minglab Rajput jangchilari va erlarini ortidan o'zlarini umumiy olovga tashlagan ayollar fojiasi sabab qilib ko'rsatilgan. Ikki xil dunyoqarashga ega bo'lgan, bir-biridan nafratlanadigan otanonaning farzandi sifatida shahzoda Salim ham ikki o't orasida qolib, kimning haq ekanligi-yu, kimning ortidan ergashishi kerakligini bila olmaydi. Natijada otasi bilan oralarida ko'rinmas devor paydo bo'ladi. Ushbu ziddiyat, bir-birini tushuna olmaslik holati alal-oqibat Salimning otasiga qarshi isyon ko'tarishiga olib keladi. Boburiylar saltanatida hukmdor otaga qarshi isyon ko'tarish motivi xuddi shu



davrdan boshlanadi. Ungacha Bobur ham, Humoyun ham otasiga sadoqat bilan xizmat qilgan edi. Shahzoda Salim isyonining asosiy sababi sifatida Akbarshohning unga birorta jiddiy lavozim yoki topshiriqni ishonmasligi ko'rsatiladi.

Asarda diniy bag'rikenglik motivi. Akbarshoh barcha dinlarga hurmat ko'rsatuvchi sabrli hukmdor sifatida gavdalangan. U nafaqat hindistondagi turli xil dinlar, balki uzoq Yevropadan kelgan iezuitlar, xristianlar va protestantlarga ham mamlakati hududida o'zlarining ibodatxonalarini qurishga ruxsat beradi. Ushbu dinlarning eng bilimli vakillarini bir joyga yig'ib, suhbatlar o'tkazadi. Ularning da'volarini diqqat bilan tinglagan Akbarshoh hech birini to'liq ma'qullamaydi va o'zining yangi ta'limotiga, “dini ilohiy”ga asos soladi. Biroq bu ta'limot Akbarshohning vorislari tomonidan davom ettirilmaydi.

Asarning to'rtinchi qismidan boshlab voqealar shahzoda Salim atrofida kechadi, Akbarshoh ikkinchi planga tushib, barcha voqealar shahzoda Salimning ruhiy va siyosiy holatidan kelib chiqib tasvirlanadi. Mukammal ota va uning orzulariga mos yashay olmayotgan, otasining mehri, e'tiboriga muhtoj o'g'ilning sarguzashtlari vositasida hokimiyatning insoniy tuyg'ularga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini juda chiroyli tarzda ochib berilgan. Akbarshohning o'g'illarini doimiy sinashi, ulardan qoniqmasligi keyingi oilaviy munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Akbarshoh hukmronligining oxirgi yillariga kelib, shahzoda Salimning o'g'illari ham ulg'ayib qoladi va Akbarshoh yosh shahzodalardan Salimni sinash maqsadida foydalanadi. Ota-bolani taxt vorisiligi uchun kurashda dushman qilib qo'ygan Akbarshoh shahzoda Salimning katta o'g'li Xusravda otasiga nisbatan nafratni shakllanishiga sababchi bo'ladi. Ushbu adovat Akbarshoh vafotidan keyin ham davom etib, shahzoda Xusrav otasiga qarshi uch marta isyon ko'taradi. Ushbu jihat temuriylar sulolasiga xos bo'lgan “taxt yoki tobut” konsepsiyasining yorqin misoli sifatida boburiylar sulolasida doimiy saqlanadi.

Rutserfordning ta'kidlashicha, ushbu romanda qayd etilgan barcha voqea-hodisalar haqiqatan ham Akbarshoh hayotida sodir bo'lgan bo'lib, asardagi deyarli barcha qahramonlar tarixiy asosga ega. Faqatgina lashkarboshi Ahmadxon va Salimning ko'kaldoshi Sulaymonbek kabi qahramonlar umumiy xarakterga ega obrazlar hisoblanadi. Muallif tarixiy faktlar va ijodiy fantaziyasiga asoslangan holda Akbarshoh davrida boburiylar sulolasidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatni ishonarli tarzda badiiylashtira olgan deyish mumkin.

“Mo'g'ullar imperiyasi” seriyasining to'rtinchi kitobi Jahongirshoh hayoti va hukmronligi davri tarixiga bag'ishlangan bo'lib, “Tahqirlangan taxt” (“The tainted throne”) deb nomlanadi. Asar nomida ta'kidlanganidek, boburiylar saltanatida shu davrdan boshlab taxtning bulg'anishi, ya'ni hokimiyat uchun shahzodalarning qatl etilishi boshlanadi va keyingi avlodlarda ham davom etadi. Bu davrgacha hech qaysi boburiy imperator taxtini himoya qilish uchun akasi yoki ukasini o'limga buyurmagan edi. Roman 2 bo'lim, 26 bobdan iborat bo'lib,



unga Jahongirshoh o'zi yoza boshlagan “Tuzuki Jahongiriy” asari, Mu'tamidxonning “Iqbolnoma” asari, Muhammad Qosimning “Gulshani Ibrohimiy”, “Shohjahonnoma” kabi yilnomalar hamda boburiylar saroyiga tashrif buyurgan Angliya elchilarining qaydnomalari asos bo'lgan. Asar voqealari Jahongir hukmronligining dastlabki uch oyi ichida to'ng'ich o'g'li shahzoda Xusravning otasiga qarshi ko'targan isyonini bostirish voqealari bilan boshlanadi. Bobosi tomonidan qadrlangan, oxirgi vaqtlarda hatto otasi o'rniga taxtga voris bo'lishi mumkinligiga ishongan shahzoda Xusrav shaxsiyati to'liq ochiq qilmagan. Jahongir shaxsiyati tasvirlangan o'rinlarda esa dastlab farzandlariga nisbatan cheksiz mehri, keyinchalik Mehrunnisoga bo'lgan kuchli sevgini, uning ta'sirida bir vaqtning o'zida davlat ishlaridan bezorlik va shu davlatni o'g'illaridan qizg'onish tuygusi chambarchasligini ko'rish mumkin.

Romanning bosh qahramonlari Jahongirshoh, Mehrunniso va shahzoda Xurram obrazlaridir. Jahongir hukmdor sifatida qat'iy, jazoda shafqatsiz, lekin muzaffar sarkarda, oshiq sifatida Mehrunnisoning har bir xohishini amalga oshiruvchi, undagi hokimiyatga bo'lgan ishtiyoqni qo'llab-quvvatlovchi yor. Ota rolida esa o'z otasining o'ziga qilgan adolatsizliklarini takrorlamagan, o'g'liga jiddiy topshiriqlarni ikkilanishlarsiz bergan bo'lsa-da, hukmronligining o'rtalarida Mehrunniso bergan afyun va sharob ta'sirida o'g'li Xurramning isyon qilishiga asosiy sababchi sifatida gavdalanadi. Asarda uning siyosati, davlat boshqaruvi haqida tasvirlar kam va muallif bunday jihatlarga ko'p to'xtalmagan. Shuningdek, Jahongirshoh san'atni juda sevar, dunyoning turli chekkalaridan rassomlarni o'z qoshiga chorlar edi. Shu sababli Mehrunnisoning asarda ta'rifi berilgan surati bizgacha yetib kelgan.

Mehrunniso shaxsiyatini o'quvchi dastlab sodda, samimiy, qiziquvchan, mehribon ayol sifatida qabul qiladi. Hattoki Mehrunniso o'z akasi Mirxonning qatlini adolatdan deb hisoblaganida ham o'quvchi uni yomon ko'rmaydi. Chunki uning ilojsizligi, oilasini asrab qolish uchun akasini qurbon qilishga majburligi voqealar rivojida anglashiladi. Biroq hokimiyat kuchli insonlarni ham sindirish qudratiga ega. Mehrunniso ham Jahongir vositasida erishgan mutlaq hokimiyati qo'lidan chiqib ketishini xohlamaydi va shahzoda Xurramga qarshi fitna uyushtiradi. Jahongirshoh saroyida bo'lgan Angliya elchisi Tomas Roe Mehrunniso va Jahongirning unga cheksiz ishonchiga, buning natijasida ota-o'g'il o'rtasida uzilib borayotgan rishtaga “olijanob shahzoda, ajoyib xotin, sodiq maslahatchi, ayyor o'gay ona, shuhratparast o'g'il, ayyor sevimli yor...” deya ta'rif beradi [Rutherford, 2012: 336].

Shahzoda Xurram asarda begunoh o'g'il, vafodor yor, mehribon ota sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uning g'olib sarkarda sifatidagi yurishlari otasi tomonidan yuksak baholanadi. Biroq Mehrunniso ota va o'g'il o'rtasida iliq munosabat davom etishiga yo'l qo'ymaydi va asosiy valiahd sifatida o'zining kuyovi shahzoda Shahriyor nomzodini qo'llay boshlaydi. Xurram otasining noma'lum sabablarga ko'ra qilgan sovuq muomalasidan ranjiydi, lekin Jahongir

bilan xoli gaplashish, vaziyatni tushuntirish imkoniga ega bo‘lmaydi. Natijada esa ota-o‘g‘il bir umr bir-birlariga dushman sifatida, lekin yuraklari tubida qolgan ilk beg‘ubor tuyg‘ularni qo‘msab yashaydilar.

Turkumning beshinchi kitobi “Ilon tishi” (“The serpent’s tooth”) Shoh Jahon davri va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi taxt uchun kurash fojiasini yaqqol aks ettirgan. Asar 2 bo‘lim, 24 bobdan iborat. Muallif asar nomida Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasidagi “Nopok farzandning borligi ilon tishidan ham o‘tkirroq og‘riq beradi”, - degan jumlagacha ishora qiladi. Bu motiv asarning markaziy g‘oyasini belgilab beradi. Mumtoz Mahalning kutilmaganda vafot etishi Shoh Jahon uchun ulkan yo‘qotish edi. U uzoq muddat motam tutadi va davlat ishlarini e‘tiborsiz qoldirib, Mumtoz Mahal uchun yodgorlik qurdirishni asosiy maqsadi qilib belgilaydi. Otasining ruhan zaifligi va qayg‘usidan foydalangan aka-ukalar taxt uchun ayovsiz kurashga kirishadilar. Qanchalik qudratli imperator bo‘lmasin, bu ziddiyatdan kech xabardor bo‘lgan Shoh Jahon farzandlari isyoni oldida ojiz qoladi.

Asarda Shoh Jahonning katta o‘g‘li Doro Shukuh bag‘rikeng, san‘at va so‘fiylikka moyil shahzoda sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, u otasining sevimli vorisi ham edi. Lekin “Taxt yoki tobut” aqidasi tayangan ukalar otasi tirikligidayoq bir-birlariga qarshi urush ochadilar. Avrangzeb qat‘iy intizomli, diniy taassub va hokimiyatga tashna shaxs sifatida gavdalanadi. U Doro Shukuhni “bid‘atchi” deb hisoblaydi va uni yo‘q qilishni o‘zining diniy burchi deb hisoblaydi. Muallif Avrangzebni diniy e‘tiqodi va davlat manfaati uchun har qanday insoniy tuyg‘ularni chetlab o‘ta oladigan, ammo qalban yolg‘iz shaxs sifatida tasvirlaydi.

Asarda Jahonoro begim obrazi Shoh Jahonning tayanchi, oilaviy birdamlikni saqlashga urinuvchi mantiqiy ovoz vazifasini bajargan. Uning olovda kuyishi epizodi ushbu asarda yangicha talqinda beriladi. Ya‘ni aslida uning kiyimi tasodifan shamdan yonib ketadi, lekin Rutherford bunga Shoh Jahonning afyun va sharob ta‘sirida qilgan ehtiyotsizligini sabab qilib ko‘rsatgan. Yoki shahzoda Doro Shukuhning qatli yashirin tarzda amalga oshirilmaydi, aksincha, kesilgan boshi otasi, Shoh Jahonga, namoyishkorona yuboriladi va bu romanning eng yuqori hissiy nuqtasini tashkil qiladi. Bundan tashqari, muallif Nikolas Ballantayn obrazidan voqealarni G‘arb kitobxonlari uchun tushunarli qilish va “orientalistik” nigohni saqlab qolish uchun foydalanadi.

Asar yuqorida qayd etilgan “Tuzuki Jahongiriy” asarining bir qismi, “Podshohnoma”, “Shoh Jahonnoma” kabi tarixiy asarlar hamda Peter Mundy, Nikolau Manuchchi kabi sayyohlarning xotiranomalariga tayangan holda yaratilgan bo‘lib, u Shoh Jahonni nafaqat buyuk oshiq va quruvchi, balki o‘z ehtirolari va farzandlarining shuhratparastliklari qurboni bo‘lgan shaxs sifatida yoritadi [Rutherford, 2013: 288]. Shoh Jahonning o‘z taxtini boy berib, umrining qolgan qismini Toj Mahalga termulib o‘tkazishi adabiy nuqtayi nazardan “fojiaviy qismat”ning mukammal tasviridir.



Aleks Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi” turkumidagi oltinchi va yakuniy romani – “Soyadagi sotqinlar” (“Traitors in the Shadows”) bo‘lib, u imperator Avrangzebning uzoq va ziddiyatli hukmronligi, hokimiyatning inson ruhiyatiga ta’siri hamda imperiyaning parchalanish jarayonlarini badiiy tahlil qiladi. Shuningdek, ushbu asar qolgan qismlarga ko‘ra ko‘proq tarixiy manbalarga ega ekani bilan farqlanadi. Voqealarning barchasi tarixda bo‘lib o‘tgan, biroq muallif ana shu voqealarning qanday va nega sodir bo‘lganini batafsil izohlaydi, asarga yangi detallar, umumlashma va to‘qima obrazlarni kiritadi.

Romanda bir necha jihatlar Avrangzeb shaxsiyati va davrini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, “taxt yoki tobut” konsepsiyasining davom etishi, ya’ni Avrangzeb bir umr o‘g‘illaridan shubhalanib yashaydi. Uning fikricha, “hukmronlik san’ati shunchalar nozikki, podshoh hatto o‘z soyasidan ham shubhalanishi kerak” [Rutserford, 2015: 11]. Uning suyukli o‘g‘li Akbarning otasiga qarshi isyon ko‘tarishi va raqiblari bilan birlashishi asarning eng dramatik chiziqlaridan biridir. Avrangzeb o‘z o‘g‘illarini ishonchsizlikda ayblaydi, ammo o‘zi ham ularga nisbatan sovuqqon va qattiqqo‘l bo‘lgani ochib beriladi. Shuningdek, Avrangzebdagi mutaassiblik Akbarshohdagi bag‘rikenglikka qarama-qarshi tarzda tasvirlangan. Uning “jizya” solig‘ini qayta joriy qilishi, musulmon dinidan boshqa barcha dinlar ibodatxonalarini vayron qilishga buyruq berishi hind xalqining keskin noroziligiga sabab bo‘ladi va imperiyani ich-ichidan yemiradi. Diniy qarashlari va oilaviy munosabatlarda keskin bo‘lgan Avrangzeb, uning siyosatiga qarshi chiqqan yoki isyonchilarni qo‘llagan har kimni, hatto farzandi bo‘lsa ham, ayamasligini qizi Zebunnisani akasi Akbarning isyonini qo‘llab-quvvatlagani uchun umrbod qamoqqa hukm qilinishida ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, uning harbiy faoliyati ham asarda muhim rol o‘ynaydi. Uning Shivaji va Marathalar bilan kurash va Shivajining asirlikdan qochib ketishi uning eng katta siyosiy mag‘lubiyatlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Muallif tarixiy faktlarga sodiq qolsa-da, ba’zi o‘rinlarda badiiy bo‘yoqlarni kuchaytirgan. Romandagi Jagindar Sinh, Vazimxon va Umar Ali obrazlari umumlashtirilgan yoki butunlay to‘qima obrazlar sirasiga kiradi. Ushbu asar Avrangzeb hukmronligining fojiaiy tahlili bo‘lib, unda diniy siyosat, oilaviy xiyonat va cheksiz hokimiyatning insoniy baxtga zidligi yuksak mahorat bilan yoritilgan.

Xulosa

Aleks Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi” romanlar turkumi boburiylar sulolasining Hindiston o‘lkasidagi uch asrlik hukmronlik davrini G‘arbona roman janri vositasida qayta yaratgan katta adabiy hodisadir. Ushbu turkum sulolaning ilk poydevoridan boshlab, yuksalishi va gullab-yashnashi hamda inqirozining ilk davrlarigacha bo‘lgan ulkan davrdagi voqealarni badiiy jihatdan mukammal yaratib bergan. Turkum tarkibidagi romanlar bir-birini o‘zaro davom ettiradi va mantiqiy zanjirni hosil qiladi. Asarlarning obrazlar tizimi ham



boy bo'lib, muallif faqatgina tarixiy shaxslar obraziga tayanmaydi, balki to'qima obrazlar vositasida asarni qo'shimcha detallar bilan boyitadi. Turkumning umumiy syujetida boburiylar O'rta Osiyo cho'llaridan kelgan bosqinchilar darajasidan Hindiston tuprog'ida o'rinishib, butun bir sivilizatsiyani yarat olgan sulola sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, asarlarda ayollar obrazi ham o'zining muhim o'rniga ega bo'lib, ayniqsa, Mehrunniso obrazi fikrimizning yorqin dalilidir. Ayollar obrazi, asosan, hamdard, qiyin vaziyatlarda oqilona maslahatlar berishga qodir ko'makchi, oilaviy birlikni saqlovchi rishta hamda hukmdorlarni o'z muhabbati bilan boshqara olish qobiliyatiga ega qahramonlar sifatida tasvirlangan.

Ko'plab tarixiy yilnomalar, kundaliklar va elchilarning esdalik xotiralari ushbu asarlar uchun tarixiy asos vazifasini bajargan. Mualliflar ushbu manbalarni sinchkovlik bilan o'rganib, asarlarida to'g'ri talqin qila olganlar. Asarlar ikki kishi tomonidan birgalikda yozilgan bo'lsa-da, o'quvchida xuddi bir muallifning asaridek taassurot uyg'otadi. Mualliflarning adabiy uslublari shunchalik birlashib ketganki, kitobxon asarni o'qish davomida ularni ajrata olmaydi. Yana bir muhim jihati shundaki, mualliflar har bir romanni yozishdan oldin ana shu roman qahramoni hayoti davomida bosib o'tgan barcha hududlarga sayohat qiladilar, qahramonning ishki dunyosini yanada yaxshiroq tushunish uchun ular kabi daryolarni kechib o'tadilar, cho'llarda tunab qoladilar, saroy xonalarida qahramonlarining izlarini qidirib, kezdilar. Ular hech bir romanga yuzaki qaramaydilar, balki ularni yana bir sayohat va ilm olish imkoni deb qabul qiladilar.

Ushbu romanlar turkumining umumiy xulosasi sifatida mutlaq hokimiyatning insonni yolg'izlikka va shubhaga solib qo'yuvchi kuchi, davlat manfaatlarining shaxsiy tuyg'ulardan ustun qo'yilishini keltirish mumkin. Ushbu jarayonlar Avrangzeb Olamgir taqdirida o'zining kulminatsion nuqtasiga yetib, imperiyaning parchalanishi va hukmdorning “gunohlar karvoni” bilan yolg'iz qolishi fojiasi bilan tugallanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Bobur Z.M. Boburnoma. V.Rahmonov&K.Mullaxo'jayeva tabdili. Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 464 b.
2. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 104 b.
3. Haydar M.M. Tarixi Rashidiy. Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 704 b.
4. Rutherford, A. Empire of the Moghul: Brothers at war. London: Headline Publishing Group, 2010. – 407 b.
5. Rutherford A. Empire of the Moghul: Raiders from the North. New York: St. Martin's Press, 2009. – 363 b.
6. Rutherford A. Empire of the Moghul: Ruler of the World. London: Headline Publishing Group, 2011. – 368 .



7. Rutherford A. Empire of the Moghul: The Serpent’s Tooth. London: Headline Publishing Group, 2013. – 302 b.
8. Rutherford A. Empire of the Moghul: The Tainted Throne. London: Headline Publishing Group, 2012. – 341 b.
9. Rutherford A. Empire of the Moghul: Traitors in the Shadows. London: Headline Publishing Group, 2015. – 270 b.
10. Sotimov G‘.Boburiyzodalar. Toshkent: Ma’naviyat, 2003. – 71 b.